

SULTON SAODAT MAQBARASI BUGUNGI KUN NIGOHIDA

Akbarov Muzaffar

Termiz davlat universiteti tarix fakulteti 420-guruh talabasi

Kalit so'zlar: Sulton Saodat, maqbara, tarixiy jarayon, yodgorlik, Hasan al-Amir, X asr, peshtoqi, gumbaz, g'isht, bezaklar ko'rki.

Annotatsiya: Sulton Saodat maqbarasi Surxondaryo viloyati Termiz shahrida joylashgan ko'hna bir me'moriy obida hisoblanadi. Tarixiy yodgorliklarni bugungi kundagi mavqeyini oshirish va turizmni yaxshilash uchun bino qayta ta'mirdan chiqqan. Yorqin gumbazlari ham tarixiy hunarmandlarning mahoratini ochib bergan. Bezak uchun qo'yilgan juft-juft g'ishtlari bilan ajralib turuvchi ushbu maqbara hozirgi kunda eng qadimiy inshoot deb e'tirof etiladi.

Аннотация: Мавзолей Султан Саодат – старинный архитектурный памятник, расположенный в городе Термез Сурхандарьинской области. Здание было отремонтировано, чтобы улучшить статус исторических памятников и улучшить туризм. Яркие купола также раскрывали мастерство исторических мастеров. Этот мавзолей, выделенный парами декоративных кирпичей, признан древнейшей постройкой.

Abstract: The mausoleum of Sultan Saodat is an old architectural monument located in the city of Termiz, Surkhandarya region. The building was renovated to improve the status of historical monuments and improve tourism. Bright domes also revealed the skills of historical craftsmen. This mausoleum, distinguished by pairs of decorative bricks, is recognized as the oldest building.

Sulton Saodat Termiz sayyidlarining dahma maqbarasi sifatida mashhurdir. Bu oilaviy majmua asrlar davomida tashkil topgan butun boshli mukammal bir inshootdir. Majmuaning eng qadimgi qismi uning janubi-g'arbidagi XI asrda qurilgan baland gumbazli ayvon peshtoqi ostidagi qabrlar bilan to'la ikki maqbara hisoblanadi.



Sulton Saodat majmui — Termizdagi me'moriy yodgorlik (10—17-asrlar). Termizning sharqida joylashgan bu ziyoratgoh VII asr davomida shakllangan. 20 ga yaqin maqbarani o'z ichiga olgan. Unda Sayyidlar sulolasining maqbaralari joylashgan. Dastlab shu atrofdagi yerlar egasi, payg'ambarimiz avlodlaridan bo'lmish Hasan al Amir (IX-asr 2-yarmida vafot etgan) va boshqa bir manbada Amir Sayyid Ali Akbar maqbarasi bunyod etilgan.¹ Xalq orasida Sulton Saodat maqbarasi nomi bilan mashhur bo'lgan maqbaralar X-asrda, qolganlari, asosan, XV—XVII-asrlarda yonma yon qurilib, uzun hovlining ikkinchi tomonini egallagan. Maqbaralar peshtoq va gumbazli chorsi xonalardan iborat. Hovlining to'ridagi peshtoq va ikki qanotidagi gumbazli maqbaralar bir xil tarzda,

¹ Arshavskaya Z.A., Rtveladze E.V., Haqimov Z.A., Srednevekovie pamyatniki Surxandari, T., 1982.

janubidagi maqbara zinalar g‘isobiga kichikroq ko‘rinadi. Shimoliy g‘arbidagi maqbaraning qurilma va bezaklari oddiy g‘ishtdan juft -juft qilib terilib, mavjli bezak hosil qilingan. Ichki xona devorlariga g‘ishtdan hoshiyali bo‘rtma ravoqlar ishlangan. Janubiy g‘arbdagi maqbara shimoliy g‘arbdagidan bir oz kichik, ko‘rinishi oddiy, ganch suvoqli. Mazkur 2 maqbara orasidagi peshtokli supa to‘riga mehrob joylashgan. Olimlar fikricha, Hasan al-Amir o‘z yaqinlari bilan taxminan 865 yilda Termizga kelib, yashab qolgan. Shu tariqa bu yerda obro‘li sayyidlar sulolasi shakllangan. O‘rta asrlardagi davlatlar, xususan, Amir Temur sultanati rivojida Termiz sayyidlarining alohida o‘rni bo‘lgan. Sohibqiron va Temuriylar payg‘ambarimiz avlodlariga hurmat ko‘rsatishni sharaf deb bilib, bu yerda xonaqoh va maqbaralar qurdirgan. Keyingi dahmalar o‘z davrining uslubiga mos ravishda barpo etilgan. Shu jihatlari bilan majmua ulkan tarixiy, ma’naviy, madaniy ahamiyatga egadir. Sirkor koshinlar binoga alohida husn bag‘ishlagan. XV —XVII-asrlarda qurilgan maqbaralarda o‘sha davrga xos yulduzsimon girih naqshlar, ganchkori bezaklar² qo’llanilgan. Ulardan birinchisining ichki o'lchami 10X10 m, ikkinchisiniki 9X9 m bo‘lib, ikkovini birlashtiruvchi gumbaz ostidagi keng maydon masjid xizmatini bajargan. Unda shakli turli-tuman uyma g‘ishtlar juda moxirona va turli uslubda terilgan. Birinchi maqbarada IX asrning ikkinchi yarmida vafot etgan shu atrofdagi yerlarning egasi, obruli oila boshligi, Muxammad payg‘ambarning avlodidan xisoblangan Xasan al-Amir ismli sayyidning xoki yetibdi. Bu zal xar xil shakldagi gishtlar bilan turli-tuman uslubda terilgan. Ikkinci zal jixozi birmuncha oddiy, har ikkala makbara eshigi kungurador ayvonli bo‘lib, hovliga qaratib qurilgan, bu uslub ansamblning keyinchalik rivojlanishida reja sifatida xizmat qiladi. Tugallangan Sulton Saodat majmuasi kelishgan ayvonli, yirik gumbazli bosh maqbara (Xasan al-Amir maqbarasi) atrofida guruxlangan imoratlardan iboratdir. Sulton Saodat qariyb yetti asr (X-XVII) davomida shakllangan. XIV-XV asrlarda Sulton Saodat majmuasida ham yangi maqbaralar qurilgan.

² «Buyuk Termiziylar» (Буюк Термизийлар) book by Mirzo Kenjabek, “Uzbekistan National encyclopedias” 2017, page-267

«Shavkat Mirziyoyev Hakim Termiziy maqbarasini ham ziyorat qildi. Yurtimizga tinchlik, qut-baraka tilab duo qilindi», — Prezident ushbu qadamjo ulkan ma'naviy meros, musulmonlar uchun tabarruk maskan ekanini qayd etib, uning tarixini mukammal o'rganish, xalqimizga va chet elliklarga yetkazish zarurligini ta'kidladi. Majmua hududini arxeologik o'rganish asosida uni obodonlashtirish, Imom Buxoriy, Imom Termiziy maqbaralaridek katta va go'zal ziyoratgohga aylantirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.³ Bugungi kunda maqbarada juda katta ta'mir ishlari bo'lib o'tgan. Barcha qilingan ishlar samarali o'laroq turizm rivoji uchun UNESCO tomonidan targ'ibot ishlari qilingan. Hamda maqbara tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish bo'libmasiga ro'yxatga o'tgan. Muhofaza jarayonidagi e'tibor asosan uning ko'rki uchundir. Gumbazli xonalar, peshtoqli zallardagi bezaklarni mashhur hunarmandlar yaratgan va bugungi kunda ham o'z jozibasini yo'qotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arshavskaya Z.A., Rtveladze E.V., Haqimov Z.A., Srednevekovie pamyatniki Surxandari, T., 1982.
2. «Buyuk Termiziylar» (Буюк Термизийлар) book by Mirzo Kenjabek, “Uzbekistan National encyclopedias” 2017, page-267
3. <https://kun.uz/uz/news/2019/04/07/shavkat-mirziyoyev-sulton-saodat-majmuasini-obod-qilish-boyicha-korsatmalar-berdi>
4. <http://simurgtravel.com/ru/uzbekistan-monuments/termez-monuments/sultan-saodat>

³ <https://kun.uz/uz/news/2019/04/07/shavkat-mirziyoyev-sulton-saodat-majmuasini-obod-qilish-boyicha-korsatmalar-berdi>

⁴ <http://simurgtravel.com/ru/uzbekistan-monuments/termez-monuments/sultan-saodat>